



I S T E ' M O L B O Z O R I


(dastlabki ma'lumot)

2018 yil yanvar-noyabr

Chakana savdo tovar aylanmasi (ovqatlanish korxonalarini qo'shgan holda) 2018 yilning yanvar-noyabr oylarida 4423,2 mlrd.so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,5 foizga oshdi.


Yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 19,4 foizni tashkil etdi. Yirik korxonalarning o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 61,9 foizga ko'payishiga olib keldi.

Xorazm viloyati shahar va tumanlar kesimida 2018 yil yanvar-noyabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari



Chakana savdo tovar aylanmasi (umumovqatlanish korxonalarini qo'shma-gan holda) hajmida katta ulushga ega bo'lgan Urganch shahri (36,2 foiz), Xazorasp tumani (11,6 foiz), Urganch tumani (8,9 foiz) ni tashkil qilib chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiyligi ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi, foizda



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga o'tgan yilga nisbatan 106,8 foizni tashkil qilib, 2436,8 ming. so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-noyabr oyida 1883,0 ming. so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Urganch shahri (11368,0 ming. so'm), Gurlan tumanida (2328,6 ming. so'm) va Yangiariq tumanı (2175,1 ming. so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 74,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 3,7 foizga oshdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,7 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi


Shahar va tumanlar	Ming. so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Urganch shahar	11368,0	121,9
Xiva shahar	2114,8	106,4
Bog'ot tuman	1262,2	101,2
Gurlan tuman	2328,6	99,5
Qo'shko'pir tuman	1107,5	98,9
Urganch tuman	2057,4	98,7
Xazorasp tuman	2138,8	99,1
Xonqa tuman	1509,6	101,6
Xiva tuman	791,2	100,1
Shovot tuman	1473,8	100,3
Yangiariq tuman	2175,1	99,5
Yangibozor tuman	1564,4	98,7

O'TGAN DAVRLARDA KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,7 foizni tashkil qiladi.

Umumi chakana savdo tovar aylanmasining 70,5 foizini tashkil qiladi.

Kichik tadbirkorlik umumi tovar aylanmasining deyarli 444,8 mlrd. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 10,1 foizni tashkil etadi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi
bo'limi

Nashr uchun mas'ul: Sh. Gadaniyazov
(0371) 230-87-68